

2022-yil yanvar-iyul oylarida respublikamizning tashqi savdo aylanmasi 28 102,9 mln. dollarni tashkil etgan.

Shundan:

Eksport:
11 272,4 mln. dollar

Import:
16 830,5 mln. dollar

YOSHLAR OVOZI

BIZ - KELAJAK BUNYODKORIMIZ!

Ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy,
adabiy-badiiy
gazeta

62 (16515)
2022-yil, 7-sentabr
chorshanba

[/yoshlarovozi](#)

[/yoshlarovozi](#)

[/yoshlarovozi.uz](#)

Gazeta 1925-yildan chiqa boshlagan

Mulohaza
2-bet

Iloji bor ekan, nega
kechiktirildi?

Yoshlar siyosati
3-bet

Volontyorlikda
yangi sahifa

Ilm karvoni
5-bet

"Jadidlar" karvoni
o'z manzilida



Foto: Nosirjon HAYDAROV

YURTIMIZDAGI BARCHA TA'LIM MUASSASALARIDA YANGI O'QUV YILI BOSHLANDI

6-betga
qarang

O'ZBEKISTON – MDH YOSHLARI POYTAXTI

Qirg'iziston Respublikasining Cho'pon-Ota shahrida Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi va Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqi ishtirokida "Kelajak" yoshlar forumi bo'lib o'tdi.



Sherzod OLIMOV,
Yoshlar ishlari agentligining mahalladagi yoshlar yetakchilari bilan ishlash boshqarmasi boshlig'i



Respublikasidan ham 20 nafar vakil qatnashdi.

Forumni o'tkazishdan asosiy maqsad – yoshlarning o'zaro muhoqotlarini rivojlantirish, yoshlar tashabbuslarini amalga oshirish, o'sib ketayotgan avlodning ijtimoiy va kasbiy ko'nikmalarini shakllantirish uchun yangi imkoniyatlarni yaratishga qaratilgan. Forum doirasida O'zbekiston Respublikasida yoshlar siyosatida amalga oshirilayotgan amaliy ishlar bo'yicha taqdimot qilindi. Ayniqsa, respublikada yoshlar bilan ishlashda "Yoshlar yetakchilari" shtati joriy

2024-YILI O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING SHAHRIGA MDH YOSHLARINING POYTAXTI MAQOMINI BERISH TAKLIFI QO'LLAB-QUVVATLANDI.

qilingani, tizimda "Yoshlar daftari" doirasida yoshlarning muammolari, taklif va tashabbuslari e'tiborga olinib, mahalladayoq yoshlar yetakchilari tomonidan masalalar yechimini topayotgani alohida e'tirof etildi. Forumga tashrif buyurgan barcha mamlakat yoshlari taqdimotni e'tibor bilan tinglab, katta qiziqish bildirdi.


Forum yakunida 2024-yili O'zbekiston Respublikasining shahriga (kelishuv asosida) MDH yoshlarining POYTAXTI maqomini berish taklifi qo'llab-quvvatlandi.

Yoshlar siyosati sohasida amalga oshirilayotgan amaliy ishlar yuzasidan tajriba almashishga xizmat qilgan mazkur forumda O'zbekiston, Qirg'iziston, Qozog'iston, Rossiya, Ozarbayjon, Belarus va Armaniston davlatlaridan 250 nafardan ziyod yoshlar vakillari, san'at, ta'lim va fan, jamoat va madaniyat arboblari, tadirkorlar, ishtirok etdi. Jumladan, O'zbekiston

Mulohaza

ILOJI BOR EKAN, NEGA KECHIKTIRILDI?

Maktab darsliklari ijarasi ikki baravarga oshdi, bu ota-onalar, keng jamoatchilikning haqli e'tiroziga sabab bo'ldi, hatto bu mamlakatimiz Konstitutsiyasiga zidligi aytiladi, oqibatda bu muammo ham Prezident aralashuvi bilan hal etiladigan bo'ldi...



Xalq ta'limi vazirligi qarorlar e'lon qilib, e'tirozlar kuchayavergach qarorni bekor qilish borasida anchagina "tajriba" to'pladi. Avval 2025-o'quv yiliga kechiktirilgan o'quvchilar uchun yagona maktab formalari 2022/23-o'quv yilidan majburiy bo'lishi to'g'risida hukumat qarori e'lon qilindi. Boshida bu qarorni qo'llab-quvvatlab, formalarning katta qismi tikilayotgan Namangan viloyatiga jurnalistlar uchun press-tur uyushtirgan vazirlik, ko'p o'tmay, majburiyat yana ortga surilganini e'lon qildi.

So'ng 15 yillik mehnat stajiga ega va shu yil bahorda attestatsiyaga jalb etilmagan oliy toifali o'qituvchilar eng quyi toifaga tushib qolayotgani shov-shuv bo'ldi. Xalq

ta'lim vazirligi yana munosabat bildirib, bunday o'qituvchilarning toifasi umrbod oliy bo'lib qolishini bildirdi.

Yana muhokamalarga sabab bo'lgan mavzulardan biri – maktab darsliklarining ijarasi edi. 2022/23-o'quv yili uchun darsliklar ijaraga narxlar ikki-uch barabarga oshirilgan. Bu jamoatchilikda keskin norozilik kayfiyatini uyg'otdi. Vazirlik bu masalani izohlay turib, darsliklar uchun ijaraga narxlar Moliya vazirligi tomonidan belgilanganini aytdi.

Xalq ta'limi vazirligi axborot xizmatining tushuntirishicha, joriy o'quv yilida ijaraga haqi keskin oshishiga yangi darsliklarni chop etish xarajatlari oshgani sabab bo'lgan. 2022-yilda jahonda qog'oz narxi

60-70 foizga balandlagani, qog'oz importida transport xarajatlari keskin oshgani, bu esa tannarx ko'tarilishiga sabab bo'lgani ham aytilgan edi. Masala ijtimoiy tarmoqlarda keng muhokamalarga sabab bo'lib, Konstitutsiyaga zidligi aytilgach davlatimiz rahbari maktab darsliklari va mashq daftarlari bepul ijaraga berishni tezkor yo'lga qo'yish bo'yicha topshiriq berdi.

Ma'lumotlarga ko'ra, maktab darsliklarini chop etishga sarflangan mablag' darslik foydalaniladigan muddat (yil)ga bo'linib yig'iladi. Yig'ilgan mablag'lar Byudjetdan tashqari Respublika maqsadli Kitob jamg'armasida to'planib, mazkur kitobni keyingi

yilda chiqarishga sarflanar edi, tartib shunday. Ijara narxlar bekor qilingach bu tartib qanday amalga oshiriladi?

Kecha AOKAda bo'lib o'tgan Xalq ta'limi vazirligi ishtirokidagi anjumanda "Maktab darsliklari faqat joriy o'quv yilida bepul taqdim etiladi", – deb xabar berdi xalq ta'limi vaziri o'rinbosari Temur Komilov.

Bekor qilingan ijaraga tushumlari o'rnini qoplash uchun byudjetdan 500 milliard so'm to'lab beriladi.

Endilikda maktab darsliklarining ijaraga to'lovlar doimiy ravishda bepul bo'ladi. Maktab darsliklarini chop etish xarajatlari kelgusi yillarda ham byudjetdan qoplanadi va buning uchun ota-onalardan boshqa pul yig'ilmaydi.

Qiziq holat. Darsliklarni bepul tarqatishning iloji bor ekan, nega shu paytgacha o'quvchilar darsliklar uchun pul to'lab keldi?

Mantiqan o'ylab qaralganda, ta'lim bepul deganda darsliklar ham bepul bo'lishi kerak. Shunday ham bo'ldi, lekin nega shuncha e'tirozlardan keyin, yana Prezident aralashuvidan so'ng hal bo'lmoqda masala? Mutasaddilar o'ylab ko'rmaydimi buni?

Shahruza SATTOROVA,
"Yoshlar ovozi" muxbiri

HARAKATLAR DASTURI:

Volontyor kim? Volontyorlik bizga nima beradi? "Volontyorlik faoliyati to'g'risida"gi qonun-chi? Shu va boshqa savollarga batafsil javob olish maqsadida Yoshlar ishlari agentligining ta'lim muassasalaridagi yoshlar bilan ishlash va volontyorlikni rivojlantirish boshqarmasi bosh mutaxassisi Elyor Norpo'latovga murojaat qildik.

– Volontyorlik yon-atrofdagilariga mehr-oqibatli, jonkuyar bo'lish, ko'makka muhtojlarga yordam qo'lini cho'zish, og'irini yengil qilish, mahalla-ko'y va jamiyat uchun kerakli shaxs bo'lish demakdir. Bunday yuksak fazilatlar ota-bobalarimizdan bizga meros. E'tibor bergan bo'lsangiz, so'nggi yillarda mamlakatimizda volontyorlik faoliyatida ishtirok etayotgan fuqarolar va tashkilotlar soni ortib, ular amalga oshirayotgan dastur va loyihalar ko'lami kengaymoqda. So'rovnomalardan ham ma'lum bo'lyaptiki, volontyorlik loyihalarida ishtirok etish istagidagi yoshlar soni oshib bormoqda.



– Yoshlar markazlarida "Volontyorlar maktablari" infratuzilmasi joriy etilgan edi. Bu maktablar faoliyati haqida to'xtalsangiz.

– Yoshlar o'rtasida volontyorlikni rivojlantirishning yaxlit tizimi sifatida Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridagi Yoshlar markazlarida "Volontyorlar maktablari" faoliyati yo'lga qo'yildi. Mazkur maktabning respublika bo'yicha 110 nafar mentor-trenerlari tayyorlandi. Hozir mentorlar 2813 nafar ko'ngilli yoshlarga uch oylik kalendar-reja asosida seminar-treninglar o'tib, ijtimoiy ahamiyatga ega turli loyihalarni amalga oshirmoqda. 5 ming nafardan ziyod yoshlar "Volontyorlar maktabi"ga a'zo bo'lish istagida elektron

VOLONTYORLIKDA YANGI SAHIFA

Shahruza SATTOROVA suhbatlashdi.



ro'yxatdan o'tgan, ro'yxatga olish ishlari davom etmoqda.

– **Volontyorlar ishtirokida qanday aksiyalar o'tkazildi?**

– Bunga joriy yilning aprel oyida "Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasida respublikamizning barcha hududlarida o'tkazilgan "Yoshlar hashari" daraxt ekish aksiyasini misol keltirish mumkin. Aksiyada 13

ming 955 nafar yosh ishtirok etib, 38,8 gektar maydonga pavloniya, oq terak, majnunol, gilos, archa, tut kabi 42 ming 200 ta daraxt ko'chati ekildi.

– **Yaqinda Volontyorlik faoliyatini yanada qo'llab-quvvatlash va muvofiqlashtirish bo'yicha Harakatlar dasturi tasdiqlandi. Bundan ko'zlangan**

asosiy maqsad va vazifalar nima?

– Harakatlar dasturining maqsadi vatanparvar yoshlarning volontyorlik harakatini qo'llab-quvvatlash, ularning faoliyatini doimiy muvofiqlashtirib borishdir. Yoshlarni volontyorlikka tayyorlashga qaratilgan dasturlarni joriy qilish, hududlardagi volontyorlik bo'yicha mentor-trenerlarning malakasini oshirish, ularga uslubiy, tashkiliy va texnik yordam ko'rsatish hamda volontyorlik ishlari yangi bosqichga olib chiqish ham shular jumlasidan.

O'zbekiston yoshlar portali negizida yaratilgan volontyorlar elektron platformasini takomillashtirish, yoshlarda ekologik madaniyatni yuksaltirish, turli ekologik loyiha va aksiyalarni amalga oshirish, mahal-

lalarda keksalarga ko'mak beruvchi ko'ngilli patronaj yoshlar guruhlarini shakllantirish hamda har oyda kamida bir marotaba o'zgalarning parvarishiga muhtoj yolg'iz keksalar halidan xabar olish ham harakatlar dasturidan o'rin olgan. Shuningdek, Turkiy davlatlardagi faol volontyor yoshlar ishtirokida Xalqaro volontyorlar forumi o'tkaziladi.

– **Harakatlar dasturi qaysi yo'nalishlarni o'z ichiga qamrab oladi?**

– Harakatlar dasturi, eng avvalo, ijtimoiy muammolarni hal qilishda volontyorlik tashkilotlari va guruhlarini ishtirok etish uchun zarur bo'lgan shart-sharoitlarni yaratish masalasini ko'rib chiqadi. Shuningdek, volontyorlik faoliyatini metodik, axborot, maslahat, ta'lim va resurslarini qo'llab-quvvatlash infratuzilmasini rivojlantirish, volontyorlik tashkilotlarining boshqa manfaatdor tashkilotlar bilan o'zaro hamkorlik ko'lamini kengaytirish borasida ham ish olib boradi. Nafaqat yoshlar, balki katta yoshdagilarning volontyorlik faoliyatida ishtirok etish imkoniyatlarini ta'minlashni ham maqsad qilib olganmiz. Volontyorlarning jinsi, milleti, yoshi, dini, ijtimoiy mavqeyidan qat'i nazar insonlarning huquq va erkinliklariga qaratilgan loyihalar

va tashabbuslarda ishtirok etishni ta'minlash, ijtimoiy himoyaga muhtoj, nogiron yoshlar, mehribonlik uyilarida tarbiyalangan, yetim bolalar, boquvchisini yo'qotgan va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni qo'llab-quvvatlashga ko'maklashish ham eng asosiy yo'nalishlarimizdan. Harakatlar dasturi volontyorlik faoliyati orqali yosh, salohiyatli kadrlar kashf etish, ularni qo'llab-quvvatlash va davlat fuqarolik xizmatiga tayyorlash, mehnat bozorida raqobatbardoshligini ta'minlash kabi yo'nalishlarni ham o'z ichiga qamrab oladi.

– **Dasturdan qanday natijalar kutilmoqda?**

– Harakatlar dasturini amalga oshirishdan kutilayotgan natijalardan biri **volontyor.uz** platformasi orqali mamlakatimizda volontyorlik ishlari tizimli yo'lga qo'yishga erishishdir. Shuningdek, volontyorlik sohasidagi qonunchilikka rioya etilishi yuzasidan monitoring yuritiladi. Yoshlarning ekologik madaniyati yuksaladi, odamlarning volontyorlik faoliyatidan xabardorligi oshadi, joylarda volontyorlik faoliyati sohasidagi davlat siyosati amalga oshiriladi, sohada xalqaro hamkorlik rivojlantiriladi.

KUNDALIK.COM MAJBURIYMI?

Kundalik.com tizimiga obuna bo'lish ota-onalar uchun ixtiyoriy sanaladi. Foydalanuvchilar to'g'risidagi barcha ma'lumotlar "O'zbektelekom" serverlarida saqlanadi.

Mazkur tizimning afzalliklari shundaki, bu orqali, avvalo, o'qituvchining vaqti tejiladi, ularga elektron jurnaldan foydalanish bepul taqdim etiladi.

Tizimga a'zo bo'lish narxi 2022-yilda 8000 so'mni tashkil etmoqda.



YOSHLAR MUAMMOLARIGA YECHIM TOPILMOQDA

Poytaxtimizning Sergeli tumanida joylashgan "Nomdanak" mahallasida 510 nafar yosh "Yoshlar balansi"ga ro'yxatga olingan. Mahalla yoshlar yetakchisi Shahnoza Ahmedova xatlov jarayonida ularning 14 nafarini "Yoshlar daftari"ga kiritgan edi. Bugun ularning bir qanchasi yoshlar yetakchisi ko'magida o'z muammosiga yechim topib ulgurdi. Kimdir to'lay olmayotgan kontrakt pulini yetakchining tavsiyasi asosida qoplagan bo'lsa, yana boshqa ishsiz yosh tadbirkorligini yo'lga qo'ydi. Quyida ayni shu yoshlarning fikriga quloq tutamiz:


Zuhra ABDULLAYEVA:

– Mahalla yoshlar yetakchisi Shahnoza Ahmedova sharoitini o'rganish uchun uyimizga kelganida og'ir kasallikka chalinganimni, I guruh nogironi ekanimni aytdim. Otam II guruh, onam III guruh nogironi, turmushimdan ham ajralganimni, bir nafar voyaga yetmagan qizim borligini va doimiy tarzda dori-darmonga muhtojligimni bildirdim. U menga "Yoshlar daftari"dan bir martalik moddiy yordam olishim mumkinligini aytdi. So'ng "Yoshlar daftari"ga elektron ariza qoldirdim, ko'p o'tmay bir martalik moddiy yordam berildi. Endilikda yoshlar yetakchisi doimiy ish o'rniga ega bo'lishim uchun harakat qilishimiz kerakligini aytmoqda. Agar doimiy ish o'rnimga ega bo'lsam, bunday muhtojlikka duch kelmasligimga ishonaman.



Fotima HAYTIMATOVA:

– Ikki nafar voyaga yetmagan farzandim bor. Turmush o'rtog'im chet elga ishlash uchun ketgan. Men esa qaynonamning uyiga sig'may, ota-onamning uyiga qaytib kelishga majbur bo'ldim. Qo'limga hunarim bor, tikuvchilikka o'qiganman, lekin daromad topishga sharoitim yo'q. Ya'ni tikuv mashinasiga ehtiyojim bor. Bu haqda mahallamiz yoshlar yetakchisi Shahnoza Ahmedovaga aytgandim, u aslo tushkunlikka tushmasligimni, "Yoshlar daftari" orqali tikuv mashinasiga ega bo'lishim mumkinligini bildirdi. Shu kunning o'zida harakatga tushib ketdik. Ko'p o'tmay yoshlar yetakchisi menga qo'ng'iroq qilib, tikuv mashinasi ajratilganini aytdi. Rosti, bu muammo shunchalar tez yechim topiladi, deb kutmagan edim. Hozir menda eng zamonaviy tikuv mashinasi bor. Mahallamiz ahliga libos tikib, juda yaxshi daromad qilyapman.




Shahnoza AHMEDOVA, Sergeli tumanidagi "Nomdanak" mahallasi yoshlar yetakchisi

– Imo-ishoraga tushmaganlar bilan farzandim orqali gaplashaman. Qizim gapira oladi, eshitadi ham. Mahalla yoshlar yetakchisi Shahnoza Ahmedova xonadonimga kelib, men bilan

subhatlashishga harakat qildi. Unga oilaviy sharoitimiz yaxshi emasligi, er-xotin II guruh nogironi ekanimizni, ikki nafar voyaga yetmagan farzandimiz borligini, aloyotgan nafaqa pullarimiz ehtiyojimizga yetmayotganini aytdim. U qo'limga qanday hunarim borligini so'radi. Ko'rpa-to'shak tika olaman, faqat tikuv mashinasi kerak dedim. Tikuv mashinam eskiligi bois unda tikib daromad ololmayman dedim. "Yoshlar daftari" orqali subsidiya asosida mehnat qurollari olishim mumkinligini tushuntirdi. Bunga boshida ishonmadim, lekin yoshlarga berilayotgan imkoniyatlarni aytgach umid paydo bo'ldi. Shundan so'ng "Yoshlar daftari"ga elektron ariza yubordim va ko'p o'tmay menga tikuv mashinasi, overlak, hatto katta dazmol ham olib kelib berdilar. Keyin mahallamiz binosiga ko'rpa-yostiqlarni arzonroq narxda tikib berishim haqida e'lon ildilar. Hozir mijozlar ko'p, daromadim ham juda yaxshi.

Alisher MANSUROV:



– O'zbekiston Milliy universitetining 4-bosqich talabasiman. Kontrakt pulimni to'lay olmay qiynalib turgan paytimda yoshlar yetakchisi xonadonimizga keldi. Unga oilaviy holatim, turmush o'rtog'im ham, o'zim ham talaba ekanligimni aytdim. Oilaviy sharoitini ko'zdan kechirib, "Yoshlar daftari"dan shartnoma pulimning bir qismini to'lash mumkinligini tushuntirdi. Elektron ariza yuborganimdan so'ng mening kontrakt pulimning bir qismi to'lab berildi. Muhtoj bo'lgan paytimda menga katta yordam berildi.



Nilufar RUSTAMOVA:

Biz guvoh bo'lgan voqealar har bir mahallada sodir bo'lmoqda. Kim uchundir bu oddiy holdek tuyulishi mumkin. Ammo mushkul vaziyatda turgan har bir yoshning muammosiga yechim topilganini eshitish, ularning minnatdorchiligini sizlarga ulashish biz uchun maroqli.

Iqbol PARDAYEVA,
"Yoshlar ovozi" muxbiri

VOLONTYORLAR O'QUV-SEMINARI

Sirdaryo viloyati Yoshlar markazida "Volontyorlar bilan samarali ishini tashkil etish" mavzusida o'quv-seminari bo'lib o'tdi.

Davlat organlarining yoshlar bilan ishlash bo'yicha rahbar o'rinbosarlari (maslahatchilari), tuman va shaharlardagi volontyorlar uchun tashkil etilgan

seminarda mentor-trenerlar tomonidan interfaol o'yinlar ham o'tkazildi.

O'quv-seminar yakunida Yoshlar ishlari agentligi Sirdaryo viloyati boshqarmasi tomonidan barcha ishtirokchilarga sertifikatlar, mentor-trenerlarga tashakkurnomalar topshirildi.

Anvar TO'YCHIYEV,

Yoshlar ishlari agentligining Sirdaryo viloyat boshqarmasi oxborot va media xizmati bo'yicha mutaxassisi



“JADIDLAR” KARVONI O‘Z MANZILIDA

Iqbol PARDAYEVA,
“Yoshlar ovozi” muxbiri




Yoshlar ishlari agentligi direktori Alisher Sa'dullayevning tashabbusi bilan ma'rifatparvar jadid bobolarimizning ibratli hayotini yoshlar o'rtasida targ'ib qilish uchun “Jadidlar” to'plami chop etilib, respublikamizning barcha viloyatlariga “Jadidlar” karvoni yuborilgan edi.

Kitoblar karvoni Sirdaryo viloyatiga ham yetib bordi. To'plam oliy ta'lim muassasalari, umum-

ta'lim maktablari va kutubxonalariga bepul tarqatilmoqda. To'plam yetib borgan maskanlarda o'quvchilar mustaqilligimiz yo'lida jon fido qilgan ajdodlarimizni yodga oldi.

Yoshlar ishlari agentligi Sirdaryo viloyati boshqarmasi boshlig'i Behzod Tog'ayev hamda O'zbekiston yoshlar ittifoqi viloyat kengashi raisi Azizbek Rahmonov Guliston shahridagi Prezident maktabi, Hali-



ma Xudoyberdiyeva nomidagi ijod maktabi va Guliston davlat universitetida bo'lib, “Jadidlar” to'plamini muassasalarga topshirdi.

Shuningdek, 1462 ta to'plam kitob Samarqand viloyatiga ham yetkazildi. To'plam barcha ta'lim muassasalari, DXX va sektorlarga berilishi belgilangan. “Jadidlar” to'plamini qabul qilib olgan sur-

xondaryoliklar ham ularni tumanlarga yetkazish harakatini boshlab yubordi.

Eslatib o'tamiz, “Jadidlar” to'plamini respublikamizning eng chekka hududlariga ham yetkazish belgilangan. Kitoblar barcha ta'lim muassasalariga yetkazib berilganidan so'ng sotuvga ham chiqariladi.

Tuhfa

“ZUBRYONOK” DAGI TA'TIL



“Zubryonok” oromgohi. Bu joy sizga III xalqaro yetakchilar forumi orqali yaxshi tanish bo'lsa kerak. 2021-yil 6–8-sentabr kunlari o'tkazilgan mazkur forumda delegatsiyamiz munosib ishtirok etgan bo'lsa, bu yil Belarus prezidenti Aleksandr Lukashenko taklifiga ko'ra yurtimizdan turli sohalarida ilg'or bo'lgan 14–16 yoshdagi o'quvchi yoshlar “Zubryonok” milliy bolalar sog'lomlashtirish markazida bo'ldi.

O'zbekiston delegatsiyasi tarkibida “Kamalak” bolalar tashkiloti sardorlari, olimpiada sovrindorlari, sportchilar va ijtimoiy faol 25 nafar yosh ishtirok etdi.

O'zbekiston va Belarus Respublikalari o'rtasidagi do'stlik aloqalarini mustahkamlash, davlat tarixi, urf-odat va madaniyati bilan yosh avlodni yaqindan tanishtirish hamda bolalarni sog'lomlashtirish tashrifidan ko'zlangan asosiy maqsad edi.

Delegatsiya a'zolarining taasurotlariga quloq tutamiz.

Shahzod Ahrorxo'jayev:

– Odatiy mashg'ulotim kompyuter qarshisida o'tirib, dasturchilik qilish edi. Bu joy menga har tomonlama zavq bermoqda, ayniqsa, maroqli hordiq chiqarmoqdaman. Oromgoh birinchi navbatda o'zining ko'lami bilan ajralib turadi. Ikkinchisi, bu yerda jadval mukammal tuzilgan, biz foydali mashg'ulotlar bilan juda-juda band bo'ldik.

Nigora Alimova:

– Bolalar juda xursand. Yana keleshni xohlashmoqda. Ularga muhit juda yoqdi: ob-havo, odamlar bilan muloqot, jarayonlar... Umuman olganda, ta'til biz kutgandan-da samarali bo'ldi.

“Zubryonok”ga Rossiya, Hindiston, Xitoy, Vyetnam, Yaponiya, Suriya davlatlaridan ham bolalar keldi va do'stlar davrasi, eng yaxshi ta'til zavqidan bahramand bo'ldi.

Dastur doirasida turli ekersiyalar, sport musobaqalari va madaniy-ma'rifiy tadbirlar tashkil etildi. Safar O'zbekiston delegatsiyasining Minsk shahriga sayohati bilan yakunlandi.

Komila HAMROYEVA,
O'ZMU talabasi

VOBKENTDA YOSHLAR MARKAZI OCHILDI



Bundan ikki oy burun – “Yoshlar oyligi” tadbirlari doirasidagi Vobkent tumanida o'tkazilgan “Rahbar va yoshlar” uchrashuvida hudud-dagi “Saraosiy” mahallasi yoshlar yetakchisi Pahlavon Ahrorov viloyat hokimiga Yoshlar markazini barpo etish taklifi bilan chiqqan edi.

Mazkur tashabbus qo'llab-quvvatlanib, viloyat hokimi Botir Zaripovning “Nasib etsa, shu yil 1-sentabr – Mustaqillik bayrami kunlarida Yoshlar markazini ochib, foydalanishga topshiramiz”, degan qat'iy javobi yoshlarni xushnud qilgan edi. Va'daga muvofiq, muazzam inshoot foydalanishga topshirildi.

Tuman markazidagi ikki qavatli inshoot viloyat “Yoshlar jamg'armasi” hisobidan ajratilgan 1 milliard 86 million so'm mablag' hisobiga qayta ta'mirdan chiqarildi. Inshootni jihozlash ishlariga mahalliy byudjet mablag'i hisobidan 500 million so'm sarflandi.

Markaz yoshlar salohiyatini belgilashda, ularni turli to'garaklarga birlashtirib, iste'dodini yuzaga chiqarishda, kasb-hunarga mehr uyg'otishda o'z o'rniga ega. Bu yerda mediamarkaz, shaxmat, “Zakovat” klublari va kutubxona faoliyati yo'lga qo'yilib, biznes va boshqa mavzularda o'quv-amaliy seminarlar, mahorat darslari tashkilashtiriladi.

Zarnigor SHUKUROVA,

Yoshlar ishlari agentligining Buxoro viloyati boshqarmasi axborot va media xizmati bo'yicha mutaxassisi

TALABALAR YANGI O'QUV YILIDAN NIMALARNI KUTMOQDA?

Yangi o'quv yili. Yana qizg'in hayot boshlandi. Yoz bo'yi ba'zan bir nafar yo'lovchini manziliga eltib qo'ygan avtobuslar ko'zi quvonchdan yonayotgan talabalarga to'la. Endi universitet va institut bog'lariga qandaydir kitob ustida bahslashayotgan, kutubxonalar mashg'ulotlarga tayyorgarlik ko'rayotgan, oshxonalar biror dam olish joyiga borishni reja qilayotgan talabalar bilan gavjum bo'ladi.

Bugungi kun talabalarining reja va maqsadlari, asosan, 4 yil davomida kitob o'qib, "Yosh kitobxon" tanloviga qatnashish, o'z ilmiy maqollari bilan xalqaro konferensiyalarda ishtirok etish, biror chet tili mukammal o'rganishdan va, albatta, oliy ta'limda o'z sohasi bo'yicha mukammal bilimga ega bo'lishdan iborat. Yuqori kurslarda o'qiydigan talabalar yaxshi bilishadiki, guruh kumaksiz bo'lmaganidek oliy ta'lim ham kamchiliklardan xoli emas. Talabalar asosan erkin muhitni, qoliplardan chiqishni istashadi.



RAQAMLASHTIRISH MUAMMOLARINING OLDINI OLADI

Nega gapni kiyinish mavzusidan boshlaganimizni bilasizmi? Chunki avval iqtisod, keyin siyosat degan gap bor. Dastlab muhit va sharoitni yaxshilab, muammolar bartaraf etilgach, ta'lim berilsa, samarali bo'ladi. Talabalarining aytishicha, darsning o'rtasida davomat va forma tekshirib keladiganlar darsning samaradorligini tushiradi. Buning oldini olish uchun esa barcha universitetlarda turniketlar joriy qilininsa kifoya. Avtomatik ravishda davomatning kiritib borilishi talabalar uchun yoqimsiz bo'lgan holatlardan birini bartaraf etadi. Yangi o'quv yilidan boshlab barcha oliy ta'lim muassasalarida talabalar o'quv varaqasi, guruh jurnali, reyting daftarchasi, akademik ma'lumotnoma, dars jadvali, davomat va

o'zlashtirishga oid ma'lumotlar va hatto to'lov-kontrakt shartnomalari ham raqamlashtirilishi haqidagi xabarlar talabalarni quvontirgani turgan gap.

– Yangi o'quv yilida kutilayotgan o'zgarishlar ichida baholash tizimining o'qituvchiga bog'liq bo'lmisligi, savol-javob va uning bahosini yangi yaratilgan axborot tizimining o'zi bajarishi haqidagi yangilik ham bor ekan. Agar har bir ma'ruza-dan so'ng talabalardan test olinsa, uning natijasi ham avtomatik tarzda tizimning o'ziga tushsa, baholash tizimi shaffoflashadi. Shu orqali tanish-bilish yoki inson omili darsga ta'sir qilmaydi, degan umiddaman, – deydi Samarqand davlat universitetining filologiya fakulteti talabasi Shahrizod Shodiyev.



OCH QORINGA O'QISH YOQMAYDI

Talabaning boshiga ba'zida bir o'zidan, ba'zida bir necha kishidan iborat ro'zg'orni tebratish mas'uliyati tushadi. Oilasi doimiy ta'minlab turadigan, ishlashga ehtiyoji bo'lmagan yoshlar ham yo'q emas. Lekin davlat oliy ta'lim muassasalaridagi talabalarining deyarli yarmi o'rta-hol oila farzandlari hisoblanadi. Ular shundoq ham o'qishga kirish uchun qo'y-u sigirini sotib, qo'shimcha darsga borishgan. Shunday oila farzandlarining suhbat, harakatlarini kuzatsangiz, yana 4 yil yaqinlariga yuk bo'lishni istamasligini tushunasiz. Bunday talabalar tezroq ish topishga, ehtiyojini o'zi qoplashga harakat qiladi. To'g'ri, o'qish davrida tinimsiz izlanib, ilm olgan talaba institutni tugatgach yana ham ko'proq pul topishi mumkin. Lekin och qorin va bo'sh cho'ntakka bamaylixotir o'qib ham bo'lmaydi-da.

– Universitetlarda darslar birinchi va ikkinchi smena tarzida o'tilishi ko'pchilikka yoqmaydigan holat. Bunda darslarning vaqti turlicha bo'ladi. Ba'zida ikkinchi smena soat 11:00 da boshlanadi yoki juda kech tugaydi. Yarim kun ishlaydigan talabalarga bu juda katta noqulaylik tug'diradi. Na tushlik vaqtigacha to'liq ishlay oladi, na tushdan keyin. Talabalar o'rtasidagi dolzarb muammo bu ularning ijtimoiy holati. Talabalarining ishlashiga va ularni ish bilan ta'minlashga ko'proq e'tibor qaratish kerak. Universitetlar talabalarining hammasini turarjoy bilan ta'minlay olmasligi, yordam puli hammaga berilmasligini hisobga olgan holda ularga 3-4-kurslardan ishlashga ko'maklashishi kerak, – deydi Guliston davlat universiteti magistranti Qudusbek Asadullayev.

Oliy ta'lim muassasalarida tahsil oluvchi ko'pchilik yoshlar yangi o'quv yilida yangicha o'zgarishlarni kutadi. Yuqorida sanab o'tganlarimiz siz va biz bilgan kamchiliklarning bir qismi, xolos. Barcha ta'lim muassasalarida talabalarni qiyayotgan muammolarni hal qilishini istagan bo'lar edik.

Shahribonu RAHMATOVA,
"Yoshlar ovozi" muxbiri



KREDIT-MODUL: USTOZ TANLASH IMKONIYATI BERILMADI

E'tibor berganmisiz, ko'pincha oliy ta'limdan nimanidir talab qilgan talabaning "og'zi yopiladi". Dars yaxshi o'tilmaydi, degan talabani keyinchalik davomiy tarzda ustozlar qiynaydi, ko'proq vazifa beriladi, sessiya paytlarida yiqitiladi. Shuning uchun talabalar o'zi o'qiydigan muassasadagi kamchiliklarni aytishga qiynaladi va "menga tegma, men senga tegmayman" qabilida ish ko'radi. Yoshlarning kelgusidagi hayoti va sohasi uchun zarur bilimlar talab darajasida berilmasligi adolatsizlik emasmi? Navoiy davlat pedagogika instituti talabasi Amriddin Shaxriddinov ta'lim tizimi haqida quyidagi fikrlarni bildirdi:

– Kredit-modul tizimiga o'tganimizga ikki yilcha bo'lib qoldi, ammo hali ham bu tizimga to'laqonli moslasholmayapmiz. Talabalar, hatto ba'zi bir ustozlar tizim haqida to'liq ma'lumot aytib berolmaydilar. Dastur bo'yicha talaba o'zi tanlagan ustozning darsini oladi deyilgan, ammo shu paytgacha birorta talabaning ustoz tanlaganini ko'rmadim. Tizimning to'g'ri ishlashi uchun choralar ko'rilsa, yaxshi bo'lardi.



TASHQI KO'RINISH MUHIMMI?


Barcha OTM yoshlarini birdek qiynaydigan mavzulardan biri bu – tashqi ko'rinish. Ba'zi ta'lim muassasalarida forma masalasi juda muhim. Ya'ni oq-qora yoki klassik uslubdagi kiyimlar talab etiladi. Talabalar o'rtasidagi so'rovnoma orqali bildirilgan forma asosan viloyatlardagi ta'lim muassasalarida qattiq talab etiladi. Aytaylik, qattiqqol' ustoz o'z darsida qat'iy formani belgilaydi yoki talabalar darvoza yonida bir-bir ko'zdan kechirilib, muassasa hududiga kiritiladi. Toshkent shahrida ham libos nazorati o'rnatilgan institutlar yetarlicha. O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti talabasi Umida Bekmirzayeva shunday deydi:

– Ba'zi universitetlarda forma nazorati haligacha qattiq, "bo'yinbog' taq", "kalta paypoq kiyma", qizlarga esa "ortiqcha pardoz qilma", "shim kiyma" kabi cheklovlar qo'yiladi. O'ylashimcha, bunday qarashlardan voz kechish vaqti keldi. Yoshlarning kiyimiga emas, o'qishiga ko'proq e'tibor qaratgan yaxshiroq. Chunki talabalar kundun kunga zamon bilan hamnafas bo'lib boryapti. Chet el tajribasi deganda nafaqat ta'lim, balki tashqi ko'rinish bo'yicha ham andozalar olinyapti. Atrofimdagi tengdoshlarim ham qoliplardan chiqishni, xohlaganiday kiyinishni va maza qilib o'qishni istashadi.

3 OYDA YOZILGAN, 62 YIL O'TIB NASHR ETILGAN

Loyiha muallifi **Ziyoda RAHIMBOYEVA**

Yoshlarni mutolaaga chorlash, kitobxonlarni qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirishni maqsad qilgan "Birga o'qiyimiz" loyihasining navbatdagi – 7-soni e'tiboringizga havola etilmoqda. Bu gal kitobsevar mushtariylarimiz o'z bilimlarini sinab ko'rishlari, yangi va qiziqarli ma'lumotga ega bo'lishlari uchun jahon adabiyotining shoh asari, Mixail Bulgakov qalamiga mansub "It'yurak" qissasini tanladik!



Hajman kichik, ammo mazmunan romanga tenglashtirilgan asarni qisqa vaqt ichida o'qib, uzoq vaqt davomida mulohaza qilishingiz tarafdorimiz. Darvoqe, asar voqealari shu qadar qiziq va shiddat bilan kechadiki, har qanday kitobxonni o'ziga bog'lab olishi hech gap emas!

Tibbiyot oliy o'quv yurtini tamomlagan yozuvchining 3 oyda yozib tugatgan, 62 yil deganda nashr etilgan asarini o'qib chiqish uchun bugunning zamonaviy kitobxonidan uzog'i ikki soat vaqt talab etiladi, xolos!

IT YURAGIDAGI ODAMMI YOXUD...

Asarni o'qib ikki xil tushunchaga ega bo'lasiz. Birinchisi, shunchaki ko'z yugurtirib, fantastik qissa sifatida qabul qiluvchilar uchun tibbiyot sohasida katta bilim va tajribaga ega bo'lgan olimning kashfiyoti, keyinroq bu kashfiyotning ko'ngilsiz oqibatlarga olib kelishi; ikkinchisi, qissadagi yashirin – ko'chma ma'noni, xalq tili bilan aytganda, "Kosa tagidagi nim kosa"ni angelay olganlar uchun esa asar katta bir roman mazmuniga ega. Unga ramziy ma'nolarga tayanib, kelajak bashoratnomasi sifatida ishonishgan!

"BO'LMAS ASLO ODAMI!"

Ko'pincha birinchi mutolaadan so'ng Hazrat Alisher Navoiyning quyidagi misralariga bo'lgan munosabatingiz o'zgaradi. Ammo bu ikki baytdagi ulkan ma'noni anglash uchun butun bir qissani o'qib chiqqaningiz sizni hayratga solmay qo'ymaydi!

Mixail Bulgakov "It'yurak" qissasida isbotlanmagan bo'lgan g'oyani g'azal mulkining sultonidan ancha vaqt avvalroq, birgina qit'ada, bir necha satrlarida yozib qoldirgan:

*Nokas-u nojins avlodin kishi bo'lsun debon,
Chekma mehnatkim, latif o'lmas kasofat olami.
Kim, kuchuk birla xo'tukka necha qilsang tarbiyat,
It bo'lur, dog'i eshak, bo'lmaslar aslo odami.*

RAMZIY TIMSOLLARDAGI TARIXIY MISH-MISHLAR

Qissaning bosh qahramonlari Fillip Fillipovich Preobrajenskiy va Ivan Arnoldovich Bormalental nafaqat tibbiyot fanlarining bilimdon namoyandalari, balki yashirin-ramziy ma'nolarni jamlagan obrazlar hamdir. Bu borada kitobxonlar orasida turli taxmin va qiyosiy tahlillar ham yuradi.

MUTOLAADA ASQOTUV- CHI MA'LUMOTLAR

Gipofiz (yunoncha "o'siq") – vazni 0,5-0,6 gramni tashkil etuvchi bu bez bosh miyaning pastki ortig'i bo'lib, odam va boshqa umurtqalilarning ichki sekresiya bezlaridan biridir. U bosh orqa suyagidagi "turk egari"da joylashib, "gipofiz oyoqcha" degan tuzilma orqali bosh miya bilan birikadi. Uch bo'lakdan iborat bu bez garmonlar hosil qilishda juda faol bo'lib, 7 xilgacha garmon ishlab chiqarishda bosh rol o'ynaydi.



O'zingizni xuddi Anatomiya darsida o'tirgandek his etdingizmi? Unday bo'lsa buni sodda til-da tushuntirishga harakat qilamiz: tibbiyotda bu bez boshqa bezlarga nisbatan orkestrdagi drijyorga qiyoslanadi, kuyning qanday jaranglashi drijyorning harakatlariga bevosita bog'liq bo'lganidek, insonning inson bo'lishida, aniqrog'i, qiyofasi shakllanishida gipofizning (u ishlab chiqaradigan gormonlarning) ahamiyati katta.

Illustratsiya: **Aleksandr Pavlov**

SAVOLLAR:

"ODAM HECH QAYOQQA SHOSHILMASA, HAMMA NARSAGA ULGURADI".

Sirli sandiqqa qiyoslanuvchi asardan iqtiboslar keltirsak va loyihamizning asosiy – savollar qismiga o'tsak. Ushbu parchalarni ham yon daftaringizga qayd qilib qo'ysangiz, foydadan xoli bo'lmaydi:

"Tasavvur qiling, butun fojea shundaki, uning ko'ksida itning emas, allaqachon inson yuragi urib turibdi. Boz ustiga tabiatdagi barcha mavjudotlar yuragi ichida eng iflosi va eng yaramasidir."

"Hech bir jonzotni savalash mumkin emas, insonga va hayvonga faqat ishontirish yo'li bilan ta'sir o'tkazish mumkin".

"Umringizning oxirigacha qo'llaringiz tozaligicha qolsin".

"Hujjat – bu dunyoda eng muhim narsa".

"Odam hech qayoqqa shoshilmasa, hamma narsaga ulguradi".

1. Qissadagi voqealar bo'lib o'tayotgan vaqtni toping, yozuvchi nega aynan shu yillarni tanlab olgan deb o'ylaysiz?

2. Qissadagi "yopiq kamera" nima?

3. Sharik kim haqida shunday deydi: "Joying jannatda bo'lgur asl inson bo'lgan-da, mana-man degan graf Tolstoylarning xonodanida xizmat qilgan?"

4. Qaysi obrazga bo'lgan munosabat yuzasidan xalqimizning "Eshakning mehnati halol, o'zi harom" maqolini ishlatish mumkin?

5. Qissada sovet gazetalariga nisbatan yozuvchining qanday munosabatini sezish mumkin? Tegishli iqtibosni keltiring.

Ko'proq o'ylash va shaxsiy munosabat-ingizni bildirishingiz talab etilayotgan savollarimizga javoblaringizni joriy yil 15-sentabrga qadar yoshlar-ovozi@mail.ru pochta manziliga yo'lashingiz mumkin.

G'oliblikni qo'lga kiritgan ishtirokchini tahririyat tomonidan maxsus sovg'a kutmoqda. Mutolaaga shoshiling, aziz yoshlar!

YOSHLARGA NIMA KERAK?

Yoshlik umrning eng navqiron fasli. Inson bolaligidan orzu qilgan, erishishni istagan nima-iki bo'lsa, yoshlikda buning imkoni bor. Noto'g'ri tashlangan birgina qadam butun hayotni o'stin-ustun qilishi mumkinligini yoshligini behuda ishlarga sarflab, ertasi afsus-nadomat bilan o'tayotganlar misolida his etish qiyin emas.

Ushbu maqola siz bilan tengdosh, ammo o'z vaqtida to'xtay olmagani yoki aksincha, boshlay olmagani uchun imkoniyatni boy bergan yoshlarning xulosalaridan iborat kichik yo'riqnom. Undan foydalanish sizning tanlovingiz!

Ziyoda
RAHIMBOYEVA
tayyorladi.

O'RGANISHDAN ORLANMASLIK

KREATIVLIK



Kreativlik sodda qilib aytsak, yaratuvchanlik, ijodkorlik degan ma'nolarni anglatadi. Ya'ni bu bir xillikdan qochish, nimagadir yangicha yondashish ko'nikmasidir. Xo'sh, biz, yoshlar uchun kreativlik nega kerak?

Kreativlikka intiladigan yoshlar har bir sohada, bajaradigan ishida ajralib turadi. Chunki ular na faqat o'z ishlarini katta ishtiyoq va qiziqish bilan, balki umuman hech kimning xayoliga kelmaydigan g'oyalari orqali amalga oshiradi. Shunday ekan, kreativlik – ish va o'qishda ham muvaffaqiyatimiz kaliti, desak adashmaymiz.

Bugungi jamiyat bir xillikdan zerikdi. Endi faqat kreativ fikrlaydigan insonga hammadan ajralib tura oladi. Chunki kreativlik cheklash mumkin bo'lgan tushuncha emas. Uni rivojlantirish esa har birimizning o'z qo'limizda. Unutmang, kreativlik – zamon talabi.

Hatto Chinda bo'lsa ham izlab borishga, o'rganishga da'vat etilgan ilm atalmish bebaho xazina har qanday shiddatli rivojlanish davrida ham o'z qiymatini yo'qotmay kelgan va shunday bo'lib qoladi. Chunki siz-u biz bugun bahuzur foydalanayotgan eng so'nggi texnika va texnologiyalar, hayotimizni yengillashtirayotgan kashfiyotlar, hayratlanarli, ammo biz uchun odatiy holga aylanib borayotgan turli yangiliklar biz uchun orzu bo'lib qolar edi! Shunday ekan, faqat maktabdagi yoki oliy o'quv yurtidagi dars vaqtida emas, har qanday vaqt (ovqatlanish, jamoat transportidan foydalanish yoki kichik tanaffus paytlari)da nimadir o'rganishga, bilim olishga harakat qiling.

Ustozlaringizga faqat ma'ruza payti emas, qiziqqan vaqtningiz ham savol berishga, bor bilimlaringizni "tortib olish"ga odatlaning! Ayniqsa, mustaqil izlanish sizni yanada serharakat qiladi, o'z bilimingizga ishonchingiz oshadi. Bilmagan yoki yaxshi tushunmagan narsalaringizni qayta so'rashdan uyalmang.

O'ZIGA ISHONCH

Ko'pchilik yoshlar chetdan qaraganda o'ziga ishonchi baland, do'stlari va yaqinlariga kelajak rejaları, maqsadlari haqida aytib berishni yoki hech kimga aytmasdan hammani hayratda qoldirishni yoqtirishadi. Ammo ayrim toifadagi, ayniqsa, o'smirlilik davridagi yoshlarda maqsad yo'lida ishonchsizlik, muvaffaqiyatsizlikka uchrashdan qo'rqish va ikkilanish hissi kuchli bo'ladi. Bunday yoshlarga yaqinlarining daldasi kerak, ammo buni ochiq ayta olishmaydi. Bu kabi holatlar oilada ota-onaga va farzand o'rtasidagi munozam aloqaning yo'qligidan darak beradi...

Aziz yoshlar, Beruniy, Xorazmiy, Ulug'bek, Farg'oniy kabi dunyo tan olgan daholarni shu xalq, shu aziz zamin yetishtirgan! Siz esa shu millatning kelajagisiz, olg'a intilishdan to'xtamang!

O'ZARO HURMAT

Sizga qaysidir ishni xato qilganingizni aytishsa, jahl bilan javob qaytarishga shoshilmang! Ayniqsa, u sizdan yosh yoki hayotiy tajribasi katta bo'lsa. Xalqimizdagi shunday go'zal ma'noga ega maqol ham so'zimizning ayni isboti: "Bir kattaning, bir kichikning gapiga kir".

Siz bilan tengdosh bo'lgan sinfdosh yoki hamkasblaringiz siz uddalay olmayotgan ishni yaxshi bilishi yoki bir vaqtlar sizdek qiynalgan bo'lishi mumkinligini unutmang. Zero, inson umri davomida yig'ib boradigan eng katta boylik pul emas, hayotiy tajribadir. Tajribasini bo'lishmoqchi bo'lgan insonga hurmat bilan munosabatda bo'ling. O'zni kelganda yordam so'rashdan uyalmang, bu bilan kelajakda siz ham kimgadir foydangiz tegishi mumkinligiga ishonasiz, agar rad etilgan taqdiringizda ham o'zingiz uddalashga harakat qila boshlaysiz. Yana shuni ham bilingki, qancha ko'p hurmat ko'rsatsangiz, shunga munosib javob olasiz!



YOSHLAR OVOZI

Bosh muharrir:
Hamza
ABDULLAYEV

Muassis:
O'zbekiston yoshlar ittifoqi
Markaziy Kengashi

Bosh hamkor:
O'zbekiston Respublikasi
Yoshlar ishlari agentligi

Navbatchi muharrir:
Sardor
SA'DULLAYEV

Musahhihlar:
Rashid XO'JAMOV,
Qirmizoy HAKIMOVA

Gazeta O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 2020-yil 11-dekabrda № 0242 raqami bilan qayta ro'yxatdan o'tgan. Gazeta materiallari tahririyat kompyuter markazida teriladi va sahifalandi. Tahririyat manzili: 100085, Toshkent, Matbuotchilar ko'chasi, 32. Telefonlar: (71) 233-22-16, (71) 236-79-95.

"Sharq" nashriyat-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi basmaxanasida, A-3 formatda chop etiladi. Hajmi – 2 bosma tabaq. Korxonaga manzili: Buyuk Turon ko'chasi, 41. Indeksler: 203, 3203. Bahosi kelishilgan narxda. Buyurtma G-955, Adali – 10525. Bosishga topshirish vaqti – 21.00. Topshirildi – 20.00.

Saytimgizga o'tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling.

